
Bayram arafasida 150 o'rinli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti foydalanishga topshirildi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30 yilligi bayrami arafasida Farg'ona shahridagi 12-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti ham foydalanishga topshirildi. Davlat dasturi asosida 5.5 mlrd. so'm mablag' ajratilib yangidan qurilgan binoning ochilish marosimida Farg'ona shahar hokimining birinchi o'rinbosari Boburjon Mo'minov, sektorlar rahbarlari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdilar.

Mazkur maktabgacha ta'lim tashkiloti avval 100 o'rinli bo'lib, tarbiyalanuvchilar uchun yetarlicha shart-sharoitlar va qulayliklar bo'lmagan. "Farg'ona kristal qurilish" MChJ tomonidan yangidan bunyod etilgan bog'cha 150 o'ringa mo'ljallangan.

Tadbirda so'zga chiqqanlar yig'ilganlarni Bosh Qomusimizning 30 yilligi bayrami hamda yangi bunyod etilgan ta'lim tashkilotining topshirilayotganligi bilan muborakbod etdilar. Shundan so'ng tadbir ishtirokchilari yangi binoda pedagog va tarbiyalanuvchilar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdilar.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-12-07 12:12:36